

**Surxondaryo viloyati  
delegatsiyasining Xitoyga tashrifi  
Xebey provinsiyasida davom etdi.  
Delegatsiyamiz dastlab,  
Shiszyachjuan shahrida ikki tomon  
rasmiylari hamda 200 ga yaqin  
ishbilarmon doira vakillari ishtirokida  
tashkil etilgan biznes forumda  
qatnashdi.**

Forumda ikki tomon rasmiylari, yirik kompaniyalar vakillari so'zga chiqib, hududlarning savdo-iqtisodiy, ilmiy texnikaviy, ijtimoiy madaniy salohiyati to'g'risida taqdimot qildi. Xususan, viloyatimiz rahbari Ulug'bek Qosimov o'z so'zida vohamizning mavjud imkoniyatlari bilan tanishtirib, Xitoy kompaniyalari bilan istiqbolli loyihalarni amalga oshirishda hamkorlik qilishga tayyor ekanligini ta'kidladi.

Shuningdek, forum doirasida Surxondaryo va Xebey tadbirkorlari, ishbilarmon doira vakillari o'rtasida tor doiradagi muzokalar, turli loyihalar yuzasidan muhokama o'tkazildi. Yakunda tomonlar uchun manfaatli va istiqbolli kelishuvlarga erishildi.